

Bank hisobvarag‘i va kompleks bank xizmatlari ko‘rsatish bo‘yicha

VS _____ - sonli

SHARTNOMA

Toshkent shahar

2024 y.

“Garant bank” AJ, bundan buyon “Bank” deb ataluvchi nomidan _____ yildagi №_____ – sonli ishonchnoma asosida harakat qiluvchi “Garant bank” AJ _____, bir tomonidan va _____ bundan buyon “Mijoz” deb ataluvchi, Ustav asosida harakat qiluvchi _____ ikkinchi tomondan, ushbu Bank hisobvarag‘i va kompleks bank xizmatlari ko‘rsatish bo‘yicha shartnomani (bundan buyon “Shartnoma”), quyidagilar to‘g‘risida tuzdilar:

1. SHARTNOMANING MOHIYATI

1.1 Ushbu Shartnoma quyidagilarni tartibga soladi:

- a) Bank tomonidan Mijozga mazkur Shartnomaning 1-ilovasida keltirilgan xizmatlarini ko‘rsatishni (Bank tomonidan Mijozga ko‘rsatiladigan xizmatlar va Tariflar ro‘yxati Bankning rasmiy veb-saytida xam joylashtiriladi);
- b) Masofadan xizmat ko‘rsatish tizimidan (MXT) foydalangan holda bank hisobvarag‘iga xizmat ko‘rsatish va I-Key elektron kalitdan foydalanish shartlarini (Shartnomaning 2-ilovasi);
- v) “Garant bank” AJning “UZCard” va/yoki “HUMO”dagi korporativ plastik kartalarini foydalanishga berish va xizmat ko‘rsatish shartlarini (Shartnomaning 3-ilovasi);
- g) Mijoz xodimlariga ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarini “Garant bank” AJning “UZCard” va/yoki “HUMO” plastik kartalariga o‘tkazish (kirim qilish) yo‘li bilan berish shartlarini (Shartnomaning 4-ilovasi);
- d) Xorijiy valyutani xarid qilish va sotish bo‘yicha operatsiyalarni o‘tkazishni, shuningdek valyuta o‘tkazmalarini amalga oshirish shartlarini (Shartnomaning 5-ilovasi);
- e) Savdo va xizmat ko‘rsatish sub’yeqtllari tomonidan plastik kartalarga xizmat ko‘rsatish shartlarini (Shartnomaning 6-ilovasi);
- j) Mijozlarga QR online xizmatidan foydalanish shartlarini (Shartnomaning 7-ilovasi);
- z) SMS-Bank tizimi yordamida masofaviy axborot xizmatlarini ko‘rsatish shartlarini (Shartnomaning 8-ilovasi).

1.2. Ushbu shartnoma imzolanganda mijoz shartnomaning 1.1-bandida ko‘rsatilgan xizmat turlarining shartlari bilan tanishgan hisoblanadi. Mijoz ushbu shartlar bilan bank sayti (yoki boshqa elektron manbalar) orqali to‘liq tanishishi mumkin. Bunda masofaviy xizmat ko‘rsatish tizimlari orqali ko‘rsatilayotgan xizmatlar to‘g‘risida Mijoz xizmatlardan foydalanishidan oldin mazkur tizim orqali shartnoma shartlari bilan tanishib chiqish va undan nusxa olish imkoniyatiga ega.

Ushbu Shartnoma, mazkur Shartnomaning 1.1-bandi b-j kichik bandlarida ko‘rsatilgan qoidalariga qo‘silish to‘g‘risidagi shartnoma ham hisoblanadi, bunda Mijozga ushbu Shartnomaning 1.1-bandi b-j kichik bandlarida sanab o‘tilgan xizmatlarni ko‘rsatish kerak bo‘lgan taqdirda qo‘llaniladi. Tegishli bank xizmatlarni ko‘rsatish uchun Mijoz tomonidan Ariza bilan Bankka (tizimga ulanish va h.k.) murojaat qilgan kundan boshlab (Mijozning arizasida ko‘rsatilgan sana) Bank xizmatlarni ko‘rsatishni boshlaydi.

1.3. Bank tomonidan kreditlar, faktoring, moliyaviy lizing, qimmatli qog‘ozlarning hisobvarag‘ini yuritish va saqlash, qimmatli qog‘ozlarni boshqarish, anderrayting, maxsus xonalarni yoki ularda saqlanayotgan seyflarni ijara berish, kafolat va kafillik berish xizmatlarini ko‘rsatish, hamda xalqaro banklar amaliyoti va qonunchiligiga muvofiq boshqa xizmatlarni ko‘rsatish, xizmatlar uchun foiz stavkalari va tariflar, Mijoz tomonidan omonat va muddatli depozitlarga mablag‘larni joylashtirish, shuningdek bank maslahatlari va boshqa axborot xizmatlari alohida shartnomalar bilan tartibga solinadi.

2. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

2.1. Ushbu Shartnomaga muvofiq Bank quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:

2.1.1. Mijoz topshirig‘iga binoan qonun hujjatlariga muvofiq hisob-kassa xizmatlарини ko‘rsatish, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hisob-kitob va kassa

operatsiyalarini amalga oshirish, shu jumladan:

- agar ushbu Shartnomada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgan talablar asosida Mijoz tomonidan hisobvaraqlar ochish uchun hujjatlar taqdim etilgan kundan so'ng, keyingi ish kunidan kechiktirmay hisobvaraqlarni ochish amalga oshiriladi. Hisobvaraqlar ochish uchun hujjatlar, Mijozning imzolar namunalari va muhr izi qo'yilgan varaqchasida ko'rsatilgan shaxslar tomonidan shaxsan taqdim qilinadi, ta'sischilar O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan yuridik shaxslarni va yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish jarayonida masofadan turib hisobvaraqlar ochish hollari bundan mustasno;

- Mijoz hisobvarag'iga kelib tushgan pul mablag'larini qabul qilish va tegishli to'lov hujjati (milliy va xorijiy valyutada) Bankka kelib tushgan kunning o'zida yoki keyingi ish kunidan kechiktirmay Mijoz hisobvarag'iga kiritish;

- Mijozning hisobvarag'idan pul mablag'larini, tegishli to'lov hujjatlari asosida o'tkazish (to'lash) to'g'risidagi topshiriqlarini bajarish;

- qonun hujjatlariga muvofiq Mijozning qarz majburiyatlari bo'yicha to'lov talabnomalarini va inkasso topshiriqnomalarini bajarish;

- amaldagi qonunchilikka muvofiq Mijozdan ham milliy ham xorijiy valyutada naqd pul mablag'larini qabul qilish va berish;

- boshqa hisob-kitob, kassa xizmatlarini ko'rsatish (Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan alohida bitimlar bilan tartibga solinadigan munosabatlar bundan mustasno).

2.1.2. Bank Mijoz tomonidan Ariza topshirilgandan keyin 5 (byesh) bank ish kuni ichida Mijozni MXTga ulashi va uni MXTda ishslash bo'yicha tavsiyaviy ko'rsatmalar berish majburiyatini oladi.

2.1.3. Mijoz hisobvarag'idan mablag'ni faqat uning topshirig'i bo'yicha yoki uning roziligi bilan hisobdan chiqarish (agar qonunchilikda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa).

Mijoz hisobvaraqlaridan pul mablag'larini uning roziligesiz hisobdan chiqarish qonun hujjatlarida va ushbu Shartnomada nazarda tutilgan hollarda ruxsat beriladi.

Bank tomonidan Mijozning bank hisobvarag'i, shu jumladan, bank kartalari bo'yicha (bank kartalaridan foydalananayotgan paytda "PIN-kod"ni noto'g'ri terilishi oqibatida blokka tushgan holatlar bundan mustasno) amaliyotlar to'xtatib qo'yilganda, Bank amaliyot to'xtatilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda Mijozga uning hisobvarag'iga xizmat ko'rsatish to'xtatilganligi va uning sabablari yuzasidan xabarnoma (ma'lumotnoma) yuborishi shart.

Bank tomonidan kreditlar va unga tenglashtirilgan operatsiyalar, lizing bo'yicha qarzdorliklarni so'ndirish uchun bank hisobvarag'i (shu jumladan, bank kartalari bo'yicha) mablag'lar Mijozning topshirig'isiz hisobdan chiqarilganda, Bank ushbu mablag' hisobdan chiqarilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda Mijozga uning hisobvarag'idan qancha miqdordagi mablag' qanday sabablarga asosan va kimning foydasiga chiqarilganligini ko'rsatgan holda xabarnoma (ma'lumotnoma) yuborishi shart.

Ushbu bandda nazarda tutilgan xabarnomalar (ma'lumotnomalar) Mijozga shaxsan Mijozning arizasida belgilangan kommunikatsiya kanallari orqali topshirilishi mumkin. Xabarnomani (ma'lumotnomani) olish usuli ushbu Shartnomaga ilova qilinayotgan Mijozning arizasida belgilanadi. Mijoz xabarnoma (ma'lumotnoma) yetkazish usulini Bankka shaxsan yoki pochta orqali yozma ariza taqdim etish yo'li bilan o'zgartirish huquqiga ega. Xabarnomani (ma'lumotnomani) Mijozga yetkazish usuli o'zgarganligi munosabati bilan ushbu Shartnomaga o'zgartirishlar kiritish talab etilmaydi.

2.1.4. Mijoz hisobvarag'ida mablag'lar mavjud bo'lмаганда yoki yetarli mablag' bo'lмаган taqdirda, unga to'lov uchun taqdim qilingan barcha majburiyatlarni, to'lanmagan to'lov summasini 2-sonli Kartotekaga joylashtirish (qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan boshqa holatlar bundan mustasno).

2.1.5. Bank xizmatlarini, shu jumladan MXT orqali taqdim etiladigan xizmatlarni ko'rsatishni va pul-hisob-kitob hujjatlarini qabul qilishni, shu jumladan elektron pul-hisob-kitob hujjatlarini ish kunlari soat 09:00 dan 17:00 gacha O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan ish kunida amalga oshiradi (dam olish va bayram kunlaridan tashqari).

Agar qonunchilikda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, Bank to'lov kunida, belgilangan vaqt ichida qabul qilingan, agarda u bank operasion kun davomida kelib tushgan bo'lsa, elektron pul hisob-kitob hujjatlarini amalga oshirish majburiyatini oladi. To'lov hujjatlari bank

operasion kuni tugagandan so‘ng kelib tushsa, Bank keyingi ish kunidan kechiktirmay elektron to‘lovni amalga oshirishga majbur, qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Mijozning boshqa topshiriqlarini quyidagi muddatlarda amalga oshirishi kerak:

- Mijozning Bosh ofisdagи hisobvaraqlari bo‘yicha o‘tkazmalari - Bankka hujjatlar, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan operasion kun yakunlanishidan 1 soat avval taqdim etilganda - shu kunning o‘zida, ushbu vaqtan kech taqdim qilingan holda – keyingi kun;

- boshqa operatsiyalar normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan muddatlarda.

2.1.6. Mijozning topshirig‘iga ko‘ra hisob-kitob operatsiyalarini, O‘zbekiston Respublikasi hududida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishning amaldagi qoidalariga qat’iy rioya qilgan holda amalga oshirish.

Pul-hisob-kitob va to‘lov hujjatlari ijro etish uchun Bank tomonidan faqat Mijozning taqdim qilgan imzolar namunalari va muhr izi qo‘ylgan varaqchada ko‘rsatilgan shaxslardan va Mijozning ishonchnomasi asosida vakil qilingan shaxsdan qabul qilinadi.

Elektron raqamli imzoning haqiqiyligi aniqlanmagan elektron pul hujjatlari ijroga qabul qilinmaydi.

2.1.7. To‘lov hujjatlarini qabul qilayotganda barcha zarur rekvizitlar mavjudligini tekshirish va belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan to‘lov hujjatlarini ijrosini ta’minalash.

2.1.8. Mijozni tekinga (bepul) kassa hujjatlari (naqd pul topshirish e’lonnomalari va boshqa zarur blankalar) bilan ta’minalaydi.

2.1.9. Mijozning talabiga ko‘ra Mijozning o‘ziga yoki uning ishonchli vakiliga shaxsiy hisobvaraqlar bo‘yicha ko‘chirma va boshqa tegishli hujjatlarni berish.

2.1.10. Mijozga taalluqli bo‘lgan bank siri bilan bog‘liq ma’lumotlarning sir saqlanishini kafolatlash. Mijoz hisobvarag‘ida amalga oshirilgan operatsiyalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni uchinchi shaxslarga uning roziligidiz faqat amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan holatlarda taqdim etish.

2.1.11. Mijoz hisobvarag‘idagi mavjud pul mablag‘larining saqlanishini ta’minalash.

2.1.12. Mijoz hisobvarag‘ida mablag‘lar mavjud bo‘lsa va mablag‘larni band qilishga bron mavjud bo‘lgan hollarda, ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarini berilishini ta’minalash.

2.2. Mijoz ushbu Sharhnomasi asosida quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:

2.2.1. Bankka hisobvaraqlar ochish va u bo‘yicha bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun amaldagi qonun hujjatlarida talab qilinadigan barcha zarur hujjatlarni taqdim qilish.

2.2.2. Bankning belgilangan ish vaqtiga tartiboti, to‘lov hujjatlarini rasmiylashtirish va taqdim etish tartibiga rioya qilish, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ hujjatlari talablarini bajarish.

2.2.3. O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini talablariga muvofiq pul-hisob-kitob hujjatlarini rasmiylashtirish.

2.2.4. Bankning talabiga ko‘ra, qonun talablariga muvofiq Mijozning operatsiyalari bo‘yicha, shu jumladan jinoiy faoliyatidan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Bankka taqdim etish.

2.2.5. Depozit hisobvaraqlaridagi mablag‘lar chegarasida kassa hujjatlarida ko‘rsatilgan maqsadlar uchun, shu jumladan ish haqi, pensiya va nafaqalar olishning kalendar jadvaliga binoan naqd pul chekini taqdim etish.

2.2.6. Mijozning topshirig‘iga ko‘ra MXT orqali uchinchi shaxslarning to‘lovlarini amalga oshirishga yo‘l qo‘ymaslik, qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

2.2.7. Mijoz tomonidan elektron raqamli imzo yopiq kaliti yo‘qolgan taqdirda yoki identifikatsiya va autentifikatsiya ma’lumotlari uchinchi shaxslarga ma’lum bo‘lib, qolgani bo‘yicha shubha tug‘ilganda, Mijoz MXT orqali xizmat ko‘rsatishni to‘xtatish to‘g‘risida darhol Bankni xabardor qilish. Bank xabardor qilinganidan so‘ng, Mijoz hisobvarag‘idan MXT orqali amalga oshirilgan operatsiyalar uchun javobgarlik Bankka yuklatiladi. MXT ishini qayta tiklash faqat Mijoz bilan kelishilgan holda 5 ish kuni ichida amalga oshiriladi.

2.2.8. To‘lovlarini faqat o‘zining Bankda ochilgan talab qilib olingungacha depozit hisobvarag‘i(lar)dagi mablag‘lar qoldig‘i doirasida amalga oshirish.

2.2.9. Korporativ plastik kartalarning Karta hisobvaraqlariga kiritilgan pul mablag‘laridan,

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlariga, ushbu Sharhnomalariga va ko'rsatib o'tilgan turdag'i hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarini amalga oshirish uchun Bank tomonidan belgilangan qoidalarga muvofiq foydalanish.

2.2.10 Barcha to'lov hujjatlarini imzolar namunalari va muhr izi qo'yilgan varaqchada ko'rsatilgan shaxslarning shaxsiy imzosi (faksimile imzo muhri qo'yish taqiqanadi) qo'yilgan va muhri bosilgan (agar muhr mavjud bo'sa) holda taqdim etish.

2.2.11. O'z kassasiga naqd pullarni kirim qilish va sarflash tartibiga, kassa intizomiga rioxalish, naqd pullarni belgilangan limitlardan ortiqcha miqdorda faqat o'z xodimlariga ish haqi va unga tenglashtirilgan (nafaqa, pensiya, stipendiya va boshqa ijtimoiy) to'lovlarini to'lash uchun bankdan olingan kunni qo'shib hisoblagan holda, 3 ish kunidan ortiq bo'limgan muddat mobaynida saqlash, ushbu muddat tugagach, bankdan olingan va belgilangan maqsad uchun ishlatalmagan naqd pullarni bank kassalariga qaytarish. Bunda mijoz tomonidan kutilayotgan kelgusi xarajatlar uchun belgilangan limitdan ortiq naqd pullarni o'z kassalarida yig'ib to'plab turishga ruxsat etilmaydi.

2.2.12. O'z hisobvarag'i bo'yicha ko'chirma (yoki Masofadan xizmat ko'rsatish tizimi orqali hisobvara holati to'g'risidagi ma'lumot) olingan kundan boshlab ikki ish kuni ichida o'z hisobvarag'iga begona mablag'lar kelib tushganligi to'g'risida Bankka xabar berish.

2.2.13. Tashqiliy-huquqiy shakli, yuridik manzili o'zgargan holda, to'lov hujjatlarini imzolash huquqiga ega bo'lgan yangi rahbar va/yoki bosh buxgalter tayinlangan taqdirda, ushbu o'zgarishlar haqida Bankni 3 (uch) ish kuni ichida xabardor qilish va tegishli hujjatlarni taqdim etish.

3. TOMONLARNING HUQUQLARI

3.1. Bank quyidagi huquqlarga ega:

3.1.1. Mijoz tomonidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, Markaziy bank normativ hujjatlari talablarining buzilishi, shuningdek hisob-kitob hujjatlarining noto'g'ri rasmiylashtirilganligi va ularning o'z vaqtida taqdim etilmaganligi hollarida, hisob-kitob va kassa operatsiyalarini tugatish choralarini ko'rish, ya'ni qonun hujjatlariga muvofiq operatsiyalarini to'xtatib qo'yish va qonunga zid bo'lgan operatsiyalarini bajarishdan bosh tortish;

3.1.2. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda Mijoz hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarini to'xtatib qo'yish yoki ularni amalga oshirishni rad etish;

mijoz yoki uning operatsiyasi sanksiya ta'sir doirasiga tushganda yoki tushish xavfi mavjud bo'lganda, operatsiyani o'rganish maqsadida qo'shimcha ma'lumotlarni so'rash, operatsiya miqdorini chegaralash, operatsiyani cheklash (rad etish) yoki amalga oshirayotgan operatsiyalar mijozning anketasidagi profiliga nomuvofiq bo'lgan hollarda xizmat ko'rsatishni rad etish va mijoz bilan sharhnomalarni bir tomonlama bekor qilish;

mijozning eksport (reeksport) sharhnomalarida sanksiya va taqiq joriy qilingan tovarlar oldisotdisi yoki sanksiyalarini aylanib o'tishga doir shubxa mavjud bo'lganda bank shubxali eksport (reeksport) sharhnomalari bo'yicha kelib tushgan mablag'lar sanksiya va taqiqlardan holi ekanligi aniqlangunga qadar tranzit hisobvaraqlarda saqlash;

3.1.3. Hisobvaraqlarga talabnomalar va uning egasi hisobvaraqdagi pul miqdori chegarasida ushbu mablag'larni erkin tasarruf etish huquqi taqdim etilganda ularning mavjudligini kafolatlagan holda Mijozning hisobvarag'idagi mablag'lardan foydalanish;

3.1.4. Qonunchilikda belgilangan tartiblarga muvofiq, Mijoz hisobvarag'idan byudjet daromadiga, byudjetdan tashqari jamg'armalarga o'tkazilishi lozim bo'lgan to'lovlarini shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda, Mijozning roziligidiz (akseptsiz) uning hisobvarag'idan mablag'larni o'tkazish;

3.1.5. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq Mijozni lozim darajada tekshirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish imkoniyati bo'limgan taqdirda, hisobvaraq ochishni rad etish;

3.1.6. Bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun asos bo'lgan hujjatlarning haqqoniyligiga shubha tug'ilganda, amaldagi qonunchilikka muvofiq, ularni imzolash huquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxslarga xabar berib, operatsiyalarini amalga oshirishni to'xtatish;

3.1.7. Mijozning asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘ida 2-sonli Kartoteka mavjud bo‘lgan taqdirda, uning ikkilamchi hisobvaraqlardan (Hukumat qarorlari asosida ochilgan maqsadli, akkreditiv jamg‘arma va muddatli depozit hisobvaraqlari bundan mustasno) mablag‘larni asosiy depozit hisobvaraqqqa o‘tkazish va 2-sonli Kartoteka yo‘qligi to‘g‘risidagi ma’lumot olingunga qadar ikkilamchi hisobvaraqlardagi operatsiyalarni to‘xtatib qo‘yish, pul-hisob-kitob hujjatlarini qabul qilmaslik va boshqa to‘lovlarni amalga oshirmaslik, Mijozning asosiy hisobvarag‘iga to‘lovlarni bundan mustasno;

3.1.8. Bank ish kuni yakunlanib, balans hisoboti tuzilgandan so‘ng, xato yozuvlar aniqlangan hollarda, ushbu xato yozuvlar kiritilgan hisobvaraqlarga keyingi bank ish kuni teskari buxgalteriya yozuvlari kiritish yo‘li bilan hisobvaraqlardan tegishli summalarini Mijozning roziligesiz hisobdan chiqarish;

3.1.9. Byudjetga mablag‘larni o‘z vaqtida o‘tkazilishini ta’minalash maqsadida, Mijoz-qarzorning so‘mdagi mablag‘lari yetarli bo‘lmaganda va valyuta hisobvarag‘ida valyuta mablag‘lari mavjud bo‘lsa, Bank soliq organlari taqdim etgan taqdimnomaga binoan Mijoz valyuta mablag‘larni O‘zbekiston Respublika valyuta birjasida shu kunda belgilangan kurs bo‘yicha Mijozning byudjet oldidagi qarz hajmini qoplash uchun yetarli miqdorda so‘zsiz ravishda sotilishini amalga oshirish;

3.1.10. Mijozlarning tashqi savdo kontraktlarini monitoring qilish bo‘yicha tadbirlarini O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va hollarda amalga oshirish;

3.1.11. Bank Mijozning barcha hisobvaraqlaridan akseptsiz ravishda bank xizmatlari uchun komissiya to‘lovlarini qoplash maqsadida pul mablag‘larini yechib olish;

3.1.12. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 780, 783-moddalariga muvofiq, Mijozning topshirig‘isiz va roziligesiz, Mijoz va Bank o‘rtasida tuzilgan ushbu Shartnoma yoki boshqa (kredit, lizing, akkreditivlar, kafillik, garov, faktoring, kafolat va kafillik berish va b.) shartnomalar bo‘yicha, shuningdek sud qarori bilan va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda yuzaga keladigan Mijozning Bank oldidagi qarzlar bo‘yicha barcha hisobvaraqlardagi pul mablag‘larni hisobdan chiqarish;

3.1.13. Mijozning hisobvarag‘ida to‘lov uchun mablag‘lar yetarli yoki mavjud bo‘lmasa, agar ushbu Shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, Mijoz tomonidan MXT orqali yuborilgan elektron to‘lov topshiriqnomasi qayta ishlash uchun bank operasion kuniga qabul qilinmaslik va bu haqda Mijozni xabardor qilish;

3.1.14. Mijoz tomonidan amalga oshirilayotgan bank operatsiyalari O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi hamda Bankning ichki me’yoriy hujjatlariga zid kelgan taqdirda ularni to‘xtatish yoki qaytarish.

3.2. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:

3.2.1. Qonun hujjatlariga muvofiq o‘z hisobvarag‘idagi pul mablag‘laridan erkin foydalanish;

3.2.2. Bankka hisob-kitob va kassa xizmatlari bo‘yicha topshiriqlar berish, inkasso bo‘yicha buyurtmalar berish, topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarilishini talab qilish;

3.2.3. Talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlaridan amaldagi qonunchilikka muvofiq naqd pul mablag‘larini olish;

3.2.4. Mijoz topshirig‘iga muvofiq uning Bankdagi hisobvarag‘idan yuborilgan va tegishli manzilga borib tushmagan mablag‘larni izlash, aniqlash va qaytarishda yordam berish uchun Bankka murojaat qilish;

3.2.5. To‘lov amalga oshirilgan kunning keyingi bank ish kunida hisobvaraqlar bo‘yicha ko‘chirmalar olish;

3.2.6. E’tirozlar mavjud bo‘lsa Bank rahbariyatiga ularni yozma ravishda taqdim etish;

3.2.7. O‘tkazib berilgan ish haqi va unga tenglashtirilgan boshqa to‘lovlarni Mijoz xodimlarining Karta hisobvaraqlariga o‘z vaqtida o‘tkazishni talab qilish;

3.2.8. Vakolatli xodimni korporativ Karta orqali operatsiyalarni amalga oshirish uchun (Kartani qabul qilish, Karta hisobvarag‘iga pul mablag‘larini tushirish (kirim qilish), Kartaning yo‘qolishi yoki shikastlanishi to‘g‘risida Bankni xabardor qilish va hokazo) tegishli buyruq bilan tayinlash. Bunda, Mijoz ushbu buyruqning nusxasini Bankka topshirish;

3.2.9. Mijoz, ushbu Shartnomani imzolangunga qadar, tanishib chiqish uchun uning bir nusxasini olish.

4. MAXFIYLIK

- 4.1. O‘zbekiston Respublikasining «Bank siri to‘g‘risida»gi Qonuniga muvofiq, Bank bank sirini tashkil etadigan Mijoz to‘g‘risidagi ma’lumotlarning maxfiyligini kafolatlaydi.
- 4.2. Bank sirini tashkil etadigan Mijoz to‘g‘risidagi ma’lumotlar faqat Mijozning yozma arizasiga binoan, Mijozning o‘ziga yoki uning ishonchli vakiliga berilishi mumkin.
- 4.3. Mijozning Bank sirini tashkil etadigan ma’lumotlarini uchinchi shaxslarga taqdim qilish faqatgina qonun hujjatlarida ko‘zda tutilgan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

5. BANK XIZMATLARI UCHUN TO‘LOVLARNING MIQDORI VA TO‘LASH TARTIBI

- 5.1. Ushbu Shartnomalar imzolangan kundan boshlab, Mijoz Bank tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun to‘lanadigan haq miqdori 1-ilovada keltirilgan tariflarlar asosida undiriladi.
- 5.2. Bank tomonidan Mijozga ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun to‘lovlar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 780, 783-moddalariga binoan, uning topshirig‘isiz tegishli summalarini Mijozning hisobvarag‘idan yechib olish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Ushbu Shartnomalar bekor qilinganda, har oylik to‘lov ko‘rinishida belgilangan to‘lovlar bo‘yicha, komissiya noto‘liq oy uchun to‘liq oy uchun belgilangan Tarif miqdorida undiriladi.
- 5.3. Belgilangan Bank tariflari o‘zgargan taqdirda, Bank Mijozni bu haqida Bankning veb-saytida, Bank binosidagi axborot stendlarida tegishli axborot e‘lonlarini joylashtirish yo‘li bilan, shuningdek ushbu shartnomada Mijoz tomonidan ko‘rsatilgan aloqa kanallari orqali yuborilgan, yoki Bank hujjatlarini olish uchun Mijoz tomonidan tayinlangan vakolatli shaxsga topshirilgan yozma xabarnoma ko‘rinishida bunday o‘zgarishlar kirgunga qadar kamida 10 (o‘n) kalendar kunidan avval xabardor qilishi shart. Bank Mijozning shartlarini yaxshilaydigan tariflarga o‘zgartirishlarni ancha qisqa muddatlarda amalga kiritishga haqlidir.
- 5.4. Hisobvaraqa mablag‘lar bo‘lmagan yoki mablag‘ yetarli bo‘lmagan, ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lanmagan summa bo‘yicha to‘lov topshiriqnomasi, akseptsiz to‘lov talabnomalari, memorial order va/yoki inkasso topshiriqnomalari Bank tomonidan Mijozning 2-sonli Kartotekasiga joylashtiriladi va qonunchilikda belgilangan tartibda ijro etilishi lozim.

6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

- 6.1. Tomonlardan biri shartnomalarini majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, bu tomon boshqa tomonga yetkazilgan zararni to‘laydi, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, shuningdek boshqa qonunchilik hujjatlari va ushbu Shartnomada nazarda tutilgan tartibda javobgar bo‘ladi.

6.2. Bankning javobgarligi:

- 6.2.1. Bank Mijozning hisobvarag‘i bo‘yicha operatsiyalarning o‘z vaqtida va to‘g‘ri amalga oshirilishiga javobgardir;
- 6.2.2. Bank Mijozning bank sirini tashkil qiladigan Mijoz to‘g‘risidagi ma’lumotlarni asossiz va noqonuniy tarzda oshkora qilganligi uchun javobgar hisoblanadi.
- 6.2.3. Elektron to‘lovlarini amalga oshirishning qonun hujjatlarida belgilangan muddatlari Bank tomonidan buzilgan taqdirda, u Mijozga kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan elektron to‘lov summasining 0,01 foizi miqdorida, lekin kechiktirilgan elektron to‘lov summasining 0,5 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda penya to‘lashni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda talab qilish huquqiga ega.
- 6.2.4. Bankning aybi bilan elektron to‘lov noto‘g‘ri amalga oshirilgan taqdirda, u mablag‘ni xatolik aniqlangan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmasdan oluvchining hisobvarag‘iga o‘tkazishi shart. Aks holda, Mijoz Bankdan mablag‘larni qaytarishni, shuningdek kechiktirilgan har bir kun uchun noto‘g‘ri amalga oshirilgan elektron to‘lov summasining 0,01 foizi miqdorida, lekin noto‘g‘ri amalga oshirilgan elektron to‘lov summaning 0,5 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda penya to‘lashni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda talab qilish huquqiga ega.
- 6.2.5. Bank Mijozning kreditorlar (uchinchi shaxslar) oldidagi shartnomalarini majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun kreditorlarga to‘lashi lozim bo‘lgan neustoyka hisoblanishi va undirilishi uchun javobgar hisoblanmaydi.

6.3. Mijozning javobgarligi:

- 6.3.1. Mijozning hisobvarag‘iga mablag‘lar xato (noto‘g‘ri) o‘tkazilgan taqdirda, agar u tomonidan hisobdan ko‘chirma olgandan so‘ng 2 (ikki) ish kuni ichida Bankka uni qaytarish

to‘g‘risida to‘lov topshiriqnomasi taqdim etilmasa, har bir kechiktirilgan kun uchun xato o‘tkazilgan summaning 0,05 foizi miqdorida, biroq xato o‘tkazilgan umumiy summaning 10 foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorda Bankka penya to‘laydi.

6.3.2. Mazkur Shartnoma bo‘yicha xizmatlar uchun to‘lov amalga oshirilmagan taqdirda, Mijoz Bankka har bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan to‘lov summasining 0,1 foizi miqdorida, biroq kechiktirilgan to‘lov summasining 10 foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorda penya to‘laydi.

6.3.3. Mijoz bank hisobvarag‘i bo‘yicha o‘tkazilgan operatsiyalarning qonuniyligi, Bankka taqdim qilingan hujjatlar va ma’lumotlarning to‘g‘riliqi va haqqoniyligi uchun javobgardir.

6.3.4. Mijoz MXT kanallaridan foydalanib elektron va qog‘oz ko‘rinishlarda yuborilgan to‘lov topshiriqnomasining to‘g‘ri rasmiylashtirilganligi, saqlanishi va muvofiqligi uchun javobgar hisoblanadi.

MXT orqali belgilangan tartibda yuborilgan elektron to‘lov topshiriqnomasining qog‘oz shaklidagi asl nusxasi Mijozda saqlanadi.

6.3.5. Mijoz Bank kassasidan olingan naqd pul mablag‘larini kassaga o‘z vaqtida kirim qilish, ularni belgilangan maqsadlar uchun sarflanishi, shuningdek kassa intizomiga rioya qilinganligi uchun qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

6.3.6. Bank Mijozning mablag‘larini boshqa banklarda ochilgan vakillik hisobvaraqlarida o‘zining aybli xatti-harakatlari bilan bog‘liq bo‘lmagan holatlarida ushlab qolishi uchun javobgar bo‘lmaydi. Bankning boshqa banklarda ochilgan hisobraqamlaridagi mijozlarning pul mablag‘larini, mazkur banklarga nisbatan vakolatl davlat organlari tomonidan ta’sir choralar qo‘llanilishini, ularning bank faoliyatini amalga oshirishga bo‘lgan huquqni beruvchi lisenziyaning chaqirib olinishi, ularning tugatilishi yoki bankrot (to‘lovga qobiliyatsiz) deb e’lon qilish bo‘yicha ishlarning boshlanishi natijasida qaytarilmasligi uchun Bank javobgar hisoblanmaydi.

6.3.7. Mazkur Shartnomaning 6.3.6. bandida ko‘zda tutilgan holatlar yuzaga kelgan taqdirda Bank tomonidan majburiyatlarni o‘z vaqtida bajarilmasligi oqibatida Bankka Shartnomaning 6.2.3. bandida nazarda tutilgan penya va amaldagi qonun hujjatlariga asosan javobgarlikning boshqa choralar qo‘llanilmaydi.

7. BANKNI JAVOBGARLIK DAN OZOD QILISH

7.1. Bank quyidagi hollarda javobarlikdan ozod qilinadi:

- a) Bank elektron to‘lovlardan tizimida yuzaga keladigan uzilishlar;
- b) Mijoz tomonidan taqdim qilingan to‘lov hujjatlarini rasmiylashtirish vaqtida yo‘l qo‘yilgan xatolar sababli to‘lovlarning ushlanib qolishi;
- v) Qonunchilikka muvofiq Mijozning hisobvarag‘i bo‘yicha operatsiyalar to‘xtatilganda;
- g) Naqd pul mablag‘larini olish uchun zarur bo‘lgan to‘lov hujjatlarini o‘z vaqtida taqdim etilmaganda yoki taqdim qilingan to‘lov hujjatlarida noaniqliklar va xatolar mayjud bo‘lganda;
- d) Elektr energiyasi bo‘lmagan hollarda, shuningdek fors-major holatlarida;
- ye) Xalqaro to‘lov-moliyaviy telekommunikasion tizimi ishidagi uzulishlarda;
- j) prosessing markazining dasturiy ta’midotidagi uzulishlarda;
- z) Mijozning pul mablag‘larining yo‘qolishiga yoki ularni kechikishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan uchinchi shaxslarning harakatlari uchun.

Shuningdek, bank har qanday mamlakat (OFAC va b.) yoki xalqaro tashkilotning (FATF va BMT kiritilgan, biroq chegaralanmagan holda) yurisdiksiyasiga muvofiq solingan sanksiyalarga binoan, Mijozning operatsiyalarini bajarganni Bank tomonidan rad etilishi natijasida yuzaga keladigan, Mijozning ziyonlarini va/yoki qo‘ldan boy berilgan foydasini to‘lash bo‘yicha javobgarlikdan ozod etiladi.

8. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

8.1. Ushbu Shartnoma bo‘yicha kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, Tomonlar o‘rtasidagi nizolar muzokaralar yo‘li bilan kelishilgan holda hal qilinadi.

Muzokaralar natijasida tomonlar o‘rtasida ikki tomonlama kelishuvga erishishning imkonи bo‘lmaganda, nizolar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan Bankning xizmat ko‘rsatayotgan filiali joylashgan joy bo‘yicha tegishli sudda ko‘rib chiqilishi lozim.

8.2. Mijoz va uchinchi shaxslar o‘rtasidagi hisob-kitoblar bo‘yicha da‘volar va nizolar

Bankning ishtirokisiz qonunchilikda belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.

9. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO‘YICHA SHARTLAR

9.1. Ushbu shartnomaga bo‘yicha tomonlar o‘z majburiyatlarini bajarayotganda, afillangan shaxslari, xodimlari yoki vositachilarini harakatlarga ta’sir qilishi yoki ushbu shaxslarning har qanday nomaqbul imtiyozlar yoki boshqa imtiyozlarni olish uchun to‘lovlarni to‘lamaydilar, to‘lashni taklif qilmaydilar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita biron bir pul mablag‘lari yoki qiymatlarni to‘lashga yo‘l qo‘ymaydilar.

9.2. Ushbu shartnomaga bo‘yicha tomonlar o‘z majburiyatlarini bajarayotganda, afillangan shaxslari, xodimlari yoki vositachilarini amalda qonunchilikda pora berish-olish, shuningdek, amaldagi qonunchilik va xalqaro xuquq talablarini buzadigan harakatlarni amalga oshirmaydilar, jinoiy yo‘l bilan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha harakatlar qilmaydi.

9.3. Ushbu shartnomaga taraflarning har biri boshqa tomonning xodimlarini har qanday tarzda rag‘batlantirishni rad etadi, jumladan pul mablag‘lari, sovg‘alar, bepul ishlarni (xizmatlarni) bajarish va boshqalar taqiqlanadi. Shu bilan birga, xodimni ma’lum bir qaramlikka olib kelishi va buning bajarilishini ta‘minlash, xodim rag‘batlantiruvchi tomon foydasiga har qanday harakatni amalga oshirishi ta‘qilganadi.

9.4. Agar biron-bir tomon korrupsiyaga qarshi kurash shartlarining buzilishi sodir bo‘lgan yoki sodir bo‘lishi mumkin deb bilsa, tegishli tomon boshqa tomonni yozma yoki og‘zaki, shu jumladan, ishonch telefoni orqali xabardor qilish majburiyatini oladi.

9.5. Taraflar shartnomaga tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so‘ng, shartnomaga bilan bog‘liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

9.6. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo‘srimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga riosa etilishi bo‘yicha hamkorlikni ta‘minlaydilar.

10. ALOHIDA SHARTLAR

10.1. Mijoz Bankdagi hisobvaraqa turgan o‘z pul mablag‘laridan mustaqil ravishda foydalanadi. Bank Mijozning pul mablag‘laridan qay tarzda foydalanishni belgilashga va nazorat qilishga hamda uning pul mablag‘larini o‘z hohishiga ko‘ra tasarruf etish huquqlariga qonunda va mazkur Shartnomada nazarda tutilmagan boshqa cheklashlarni belgilashga haqli emas.

10.2. Mijoz hisobvarag‘i bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirish tartibi tomonlar uchun majburiy bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi.

10.3. Bank qonunchilikda nazarda utilgan hollarda, shu jumladan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq Mijozni lozim darajada tekshirish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, Bank Mijozga hisobvaraqa ochishni rad etishga haqli.

10.4. Mijozning hisobvaraqlaridagi mablag‘lar qoldig‘iga, shuningdek, mijozning hisobvarag‘i yopilgan va qoldiq mablag‘larni 29842-hisobvarag‘iga - (harakatsiz depozit majburiyatları) o‘tkazilganda, ko‘rsatilgan qoldiqlar summasiga foizlar hisoblanmaydi.

10.5. Mijozga ikkilamchi hisobvaraqa ochilganda va u bo‘yicha bank xizmatlari ko‘rsatilganda naqd pul berish (ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlari) shartlari amal qilmaydi. Ikkilamchi hisobvaraqa yuritish amaldagi bank qonunchiligidagi va ushbu Shartnomaga muvofiq amalga oshiriladi.

10.6. Tomonlar tijorat sirlarining maxfiyligini himoya qilish choralarini ko‘rishlari shart.

10.7. Asosiy hisobvaraqa bo‘yicha operatsiyalar faqat hisobvaraqa egasining farmoyishiga ko‘ra yoki hisobvaraqdagi pul mablag‘lari tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirayotgan organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi qarori bo‘yicha yoxud sud ajrimiga ko‘ra xatlanganda, shuningdek, qonun hujjatlarida ko‘zda utilgan boshqa hollarda to‘xtatib qo‘yilishi mumkin. Bunday holda, pul mablag‘lari faqat qaror yoki ajrimda ko‘rsatilgan summaga xatlanadi.

11. FORS-MAJOR HOLATLARI

11.1. Ushbu shartnoma tuzilganidan keyin yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan suv toshqini, yong‘inlar, zilzilalar va tabiiy ofatning boshqa ko‘rinishlari, hamda urush, epidemiya, epizootiya, davlat organlarining (O‘zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlar) mazkur Shartnoma shartlarini bajarishga to‘sqinlik qilishi mumkin bo‘lgan hujjatlari, shuningdek boshqa shunga o‘xshash oldini olish imkoniyati bo‘lmagan fors-major holatlarida, yoki qonun hujjatlari bekor qilinishi yoki amaldagi qonun hujjatlariga kiritilgan o‘zgartirishlar munosabati bilan, ushbu Shartnoma bo‘yicha har qanday majburiyatlar to‘liq yoki qisman bajarilmagan hollarda Shartnoma tomonlaridan hech biri javobgar bo‘lmaydilar.

12. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI, UNI O‘ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

12.1. Ushbu Shartnoma nomuayyan muddatga tuzilib taraflar tomonidan imzolangan kundan boshlab kuchga kirgan deb hisoblanadi. Shartnoma taraflardan birining tashabbusi bilan ikkinchi tarafni bu xaqda ogohlantirgan xolda yoki taraflarning kelishuviga binoan bekor qilinishi mumkin. Shartnomani bekor qilish yuzasidan taraflar kelishuvga erishmagan taqdirda, shartnoma sud tartibida bekor qilinishi mumkin.

12.2. Ushbu Shartnomaga kiritiladigan barcha o‘zgartirish va qo‘srimchalar, agar ushbu Shartnomada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, tomonlarning kelishuviga muvofiq faqat yozma ravishda qo‘srimcha kelishuvni imzolash yo‘li bilan amalga oshiriladi.

12.3. Mazkur Shartnoma Mijozning arizasiga ko‘ra hohlagan vaqtida Mijoz tomonidan Bank oldidagi xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq barcha to‘lovlar to‘la amalga oshirilgandan so‘ng, Bankni xabardor qilgan xolda, o‘rnatilgan tartibda bekor qilinishi mumkin.

12.4. Bankning talabiga binoan ushbu Shartnoma quyidagi hollarda sud qarori bilan bekor qilinishi mumkin:

a) Mijoz hisobvaraqa saqlanayotgan pul mablag‘lari summasi Bank Tariflarida nazarda tutilgan summaning eng kam miqdoridan oz bo‘lsa, agar bunday summa Bank tomonidan bu haqda Mijozni ogohlantirgan kundan boshlab bir oyda tiklanmasa;

b) bir yil davomida Mijozning barcha hisobvaraqlarida operatsiyalar amalga oshirilmagan bo‘lsa.

12.5. Shartnoma bekor qilingandan so‘ng, Mijozning hisobvarag‘idagi pul mablag‘lari qoldig‘i uning tegishli yozma arizasi asosida 7 (yetti) kundan kechiktirmay Mijozga beriladi yoki uning ko‘rsatmasi bo‘yicha boshqa hisobvaraqqqa o‘tkaziladi. Bank hisobvarag‘i shartnomasining bekor qilinishi Mijozning hisobvarag‘ini yopish uchun asos hisoblanadi. Agar Shartnoma bekor qilingan kundan boshlab 7 (yetti) kun ichida Mijoz boshqa hisobvaraqqqa pul o‘tkazish to‘g‘risida yozma ko‘rsatma bermasa, Bank Mijozning hisobvarag‘idagi mablag‘lar qoldig‘ini 29842 ("Harakatsiz depozit majburiyatlar") hisobvarag‘iga o‘tkazadi.

12.6. Mijozning asosiy hisobvarag‘i unga tegishli bo‘lgan boshqa hisobvaraqlar yopilgandan keyingina yopiladi.

12.7. To‘qiz oy mobaynida Mijozning moliya-xo‘jalik faoliyati bo‘yicha bank hisobvaraqlariga pul mablag‘lari tushmagan hollarda Bank uch ish kuni ichida u hisobga qo‘yilgan joydagi davlat soliq xizmati organiga (tadbirkorlik sub‘yektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yishning avtomatlashtirilgan tizimi orqali) ma’lumot taqdim etadi.

Ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ tomonidan Mijozni harakatsiz holatga o‘tkazilgan taqdirda, Bank “Moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan tadbirkorlik sub‘yektlarini davlat resstridan chiqarish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomda (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 21 avgustdagи 704-sonli Qarorining 2-sonli Ilovasi) ko‘rsatilgan talablarga asosan harakatsiz holatga o‘tkazilgan Mijozning hisobvaraqlarini bir ish kunida yopib, pul mablag‘larini harakatsiz depozit hisobvaraqlariga o‘tkazadi. Harakatsiz holatga o‘tkazilgan Mijozga kelib tushgan mablag‘lar ularning harakatsiz depozit hisobvaraqlariga kirim qilinadi. Ushbu Mijozning hisobvaraqlariga qo‘yilgan talablar harakatsiz depozit hisobvaraqlaridan O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 56-moddasida belgilangan tartibda hisobdan chiqariladi.

Ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ tomonidan Mijozni (tadbirkorlik sub‘yektlari - yuridik shaxslar) harakatsiz holatga o‘tkazilgan taqdirda, davlat reyestridan chiqarilgan kundan yoki hisobvaraq yopilgan paytdan e’tiboran ushbu Shartnoma bekor qilinadi.

12.8. Sudning hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib qo'yish to'g'risidagi tegishli qarori taqdim etilganda, Bank keyingi ish kunidan kechiktirmay Mijozning hisobvaraqlarini yopadi. Bunda, Mijozning yopiladigan hisobvaraqlaridagi mablag'lari qoldiqlari Bank tomonidan foydalanish huquqisiz maxsus hisobvaraqlarga o'tkaziladi. Mijozning Bankka to'lash uchun taqdim etilgan kreditorlik qarzi esa alohida ko'zda tutilmagan holatlar hisobvarag'iga o'tkaziladi.

12.9. Mijozning yopiladigan hisobvaraqlardagi mablag'lari Bank tomonidan foydalanish huquqisiz 29842 - "Harakatsiz depozit majburiyatları" hisobvarag'iga kirim qilinadi.

12.10. Ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub'yektlari - yuridik shaxslarning bank hisobvaraqlarini yopish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 21 avgustdag'i 704-sont qarori bilan tasdiqlangan Tadbirkorlik sub'yektlarini ixtiyoriy tugatish va ularning faoliyatini to'xtatish tartibi to'g'risidagi nizomga asosan amalga oshiriladi.

12.11. Ushbu Shartnomaning amal qilishi bekor qilingan taqdirda, Tomonlar 3 (uch) ish kuni ichida barcha hisob-kitoblarni to'liq amalga oshirishlari va quyidagi shartlarni bajarishlari kerak:

- Bank ish haqi loyihasi uchun ochilgan Karta hisobvaraqlarini yopadi, pul mablag'lari qoldig'ini Karta Saqlovchiga beradi (agar Bankning Tariflarda belgilangan bo'lsa, Karta hisobvarag'iga foizlar hisoblangan holda) yoki uning yozma arizasiga ko'ra boshqa hisobvarag'iga o'tkazish;
- Mijoz ko'rsatilgan xizmatlar uchun Bankning Tarifiga muvofiq haq to'lash majburiyatini o'z zimmasiga olish;
- Mijoz Bankka korporativ plastik kartalarni yopish to'g'risida yozma ariza taqdim etish majburiyatini oladi va Bank esa ushbu Shartnomada bo'yicha barcha tegishli to'lovlarni amalga oshirgandan so'ng Mijoz tomonidan taqdim qilingan to'lov talabnomasida ko'rsatilgan pul mablag'larini Mijozning talab qilib olingunga qadar asosiy depozit hisobvarag'iga o'tkazib beradi, ushbu hisobvaraqlarini to'lov talabnomasida ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

13. SHARTNOMANING BOSHQA SHARTLARI

13.1. Tomonlarning o'rtaqidagi ushbu Shartnomada ko'zda tutilmagan o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Ushbu Shartnomaga barcha ilovalar uning ajralmas qismi hisoblanadi.

Mazkur shartnomaga va O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida" qonuniga asosan mazkur shartnomada qayd etib o'tilgan amaliyotlar bajarilishi maqsadida, mijoz o'zi haqida shaxsiy ma'lumotlarni saqlash, yig'ish, o'zgartirish, ishlatish, va mazkur ofertada aytib o'tilgan amaliyotlarni bajarish uchun uchinchi shaxslarga ma'lumotlarni taqdim qilish huquqini Bankka beradi.

13.2. Mijozning boshqa (uchinchi) shaxslar bilan hisob-kitoblari bo'yicha o'zaro da'volari ular tomonidan Bank ishtirokisiz ko'rib chiqiladi.

14. TOMONLARNING POCHTA MANZILLARI, REKVIZITLARI IMZOLARI:

«Bank»

"Garant bank" AJ

«Mijoz»